

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2026- yilning yanvar-mart oylarida Navoiy viloyati bo'yicha yalpi hududiy mahsulot (keyingi o'rinlarda – YAHM) hajmi joriy narxlarda 52 553,1 mlrd. so'mni tashkil etdi va o'tgan yilning mos davri bilan taqqoslaganda 6,1 % ga o'sdi.


YAHM deflyator indeksi o'tgan yilning mos davri narxlariga nisbatan 124,3 % ni tashkil qildi.

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha YAIMning shakllanishida Navoiy viloyatining qo'shgan hissasi 11,7 % ga yetdi.

## 2026- yilning yanvar-mart oylarida Navoiy viloyatida ishlab chiqarilgan yalpi hududiy mahsulot



- YAHM o'sish sur'ati
- YAHM hajmi
- YAHM deflyator indeksi
- YAIMga qo'shgan hissasi



## 2026- yilning yanvar-mart oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHM ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari

	Mlrd. so'm		O'sish sur'atlari, o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da
	2025- yil	2026- yil	
<b>I. YAHM, jami</b>	<b>39 859,2</b>	<b>52 553,1</b>	<b>106,1</b>
<i>shu jumladan:</i>			
tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	39 627,4	52 079,2	106,1
mahsulotlarga sof soliqlar	231,8	473,9	106,3
<b>II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati</b>	<b>39 627,4</b>	<b>52 079,2</b>	<b>106,1</b>
<b>qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi</b>	<b>1 569,5</b>	<b>1 916,8</b>	<b>105,3</b>
<b>sanoat (qurilishni qo'shgan holda)</b>	<b>33 686,1</b>	<b>45 090,9</b>	<b>105,9</b>
sanoat	32 693,0	43 792,3	105,3
qurilish	993,1	1 298,6	124,3
<b>xizmatlar</b>	<b>4 371,8</b>	<b>5 071,5</b>	<b>108,3</b>
savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	1 453,2	1 679,2	108,9
tashish va saqlash, axborot va aloqa	637,6	736,8	110,0
boshqa xizmat tarmoqlari	2 281,0	2 655,5	107,4



Quyida keltirilgan infografikadan ko'rinib turganidek, aholi jon boshiga hisoblangan YAHM 47 196,3 ming so'mni tashkil etdi va bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan 4,5 % ga yuqoridir.

## 2026- yilning yanvar-mart oylarida aholi jon boshiga hisoblangan YAHM hajmi (ming so'mda)



## 2026- yilning yanvar-mart oylarida aholi jon boshiga hisoblangan YAHMning o'sish sur'atlari (o'tgan yilning mos davriga nisbatan % hisobida)



## Yanvar-mart oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)

	2025- yil	2026- yil
<b>I. YAHM, jami</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>
<i>shu jumladan:</i>		
tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	99,4	99,1
mahsulotlarga sof soliqlar	0,6	0,9
<b>II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>
<b>qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi</b>	<b>4,0</b>	<b>3,7</b>
<b>sanoat (qurilishni qo'shgan holda)</b>	<b>85,0</b>	<b>86,6</b>
sanoat	82,5	84,1
qurilish	2,5	2,5
<b>xizmatlar</b>	<b>11,0</b>	<b>9,7</b>
savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	3,7	3,2
tashish va saqlash, axborot va aloqa	1,6	1,4
boshqa xizmat tarmoqlari	5,7	5,1




2026- yilning yanvar-mart oylarida hudud iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo‘shilgan qiymat (YAQQ) hajmi umumiy YAHMning 99,1 % ini, mahsulotlarga sof soliqlar esa 0,9 % ini tashkil etdi.

Hisobot davrida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligining YAHMning tarmoqlar bo‘yicha tarkibidagi ulushi 3,7 % ni, sanoat tarmog‘i 84,1 % ni, qurilish 2,5 % ni va xizmatlar sohasi 9,7 % ni tashkil qildi.

## Yanvar-mart oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha YAHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)

2025- yil



2026- yil




● Yalpi qo‘shilgan qiymat

● Mahsulotlarga sof soliqlar

YAHM o'sishiga qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi tarmog'i 0,2 f.p. (2025- yilning yanvar-martda – 0,3 f.p.), sanoat tarmog'i – 4,4 f.p. (2025- yilning yanvar-martda – 8,5 f.p.), qurilish tarmog'i – 0,6 f.p. (2025- yilning yanvar-martda – 0,4 f.p.) va xizmat ko'rsatish sohasi – 0,9 f.p. (2025- yilning yanvar-martda – 1,2 f.p.) ijobiy hissa qo'shdi.

Mahsulotlarga sof soliqlarning o'sishi hisobiga YAHM 0,04 f.p. (2025- yilning yanvar-martda – 0,1 f.p.)ga ko'paydi.

## 2026- yilning yanvar-mart oylarida YAHM o'sishida tarmoqlarning hissasi (jamiga nisbatan % da)



2026- yilning yanvar-mart oylarida YAHMning o'sishi hudud iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridagi ijobiy o'sish sur'atlari bilan bog'liqdir. O'sish sur'atlari qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 105,3 % (YAHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi – 3,7 %), sanoatda – 105,3 % ( 84,1 %), qurilishda – 124,3 % ( 2,5 %), xizmatlar sohasida – 108,3 % ni ( 9,7 %) tashkil etdi. Xizmatlar sohasi tarkibida o'sish sur'atlari savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 108,9 % ( 3,2 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa 110,0 % ( 1,4 %), boshqa xizmat tarmoqlarida 107,4 % dan ( 5,1 %) iborat bo'ldi.

## Yanvar-mart oylarida YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mutlaq o'sish sur'atlari (o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)

2025- y.

2026- y.



10,5 %

YAHM

6,1 %



4,3 %

Qishloq, o'rmon  
va baliqchilik xo'jaligi

5,3 %



11,4 %

Sanoat

5,3 %



9,9 %

Qurilish

24,3 %



8,4 %


Xizmatlar

8,3 %



2026- yilning yanvar-mart oylarida YAHM deflyatori indeksi o'tgan yilning mos davridagi narxlarga nisbatan 124,3 foizni tashkil etdi. YAHM deflyatori indeksining eng yuqori ko'rsatkichlari sanoatda – 127,2 % va qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 116,0 % qayd etildi.

## Yanvar-mart oylarida YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha deflyator indeksi (o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)



2026-yilning yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik 6 693,1 mlrd. soʻmni tashkil etdi (oʻtgan yilning mos davriga nisbatan – 5 797,8 mlrd. soʻm). YAHMdagi ulushi 12,9 % ni (oʻtgan yilning yanvar-mart oylarida – 14,6 %) tashkil qildi.

Kichik tadbirkorlikning YAHMdagi ulushining oʻtgan yilning mos davriga nisbatan kamayishi yirik korxonalar ulushining oʻsishi bilan bogʻliq.

## Yanvar-mart oylarida kichik biznesning hajmi va YAHMdagi ulushi (jamiga nisbatan %da)

Hajmi, mlrd.soʻm

Ulushi, % da

2025- yil

5 797,8

14,6 %

2026- yil

6 693,1

12,9 %

